

**ALISHER NAVOIY IJODIDA ARASTU VA SUQROT OBRAZLARI
TAHLILI**

Umarova Gulmalika Qahramonovna

ShDPI doktoranti

ANNOTATSIYA: *Sharq mumtoz adabiyotida an'anaviy obrazlar mavjud bo'lib, ular hikoya, afsona, doston va umuman ijod namunalarida takrorlanadi va barchaga ma'lum va mashhur bo'lib kelgan. Bunday obrazlardan biri hakim obrazidir. Yaqin va O'rta sharq mamlakatlari adabiyoti va tarixiy kitoblarida hakim, donishmand nomlari bilan atalib kelinadi.*

Kalit so'zlar: *Sharq mumtoz adabiyotida, Alisher Navoiy, hakim, Arastu, Suqrot, Aflotun, Bilgamish dostoni, "Saddi Iskandariy", dostoni.*

Muqaddas yettilik tushunchasi yer yuzidagi deyarli barcha xalqlar uchun birdek e'tiborli hisoblanadi. Chunki bu raqam sehrli raqamlarning eng mashhuri bo'lib, ayniqsa, Sharqda juda e'zozlangan. Bu raqamning kelib chiqishi va sayyoralar bilan bog'lanishi haqida ma'lumot berar ekan, S.Hasanov Bobilning janubida yashagan shumerlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq holda deb tushuntiradi. Zoir Ziyotov "Shumerlar va Turon qavmlari" kitobida shumerlar aslida O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari degan fikmi o'rta tashlaydi. Bu xalqning ijodiyoti namunasi hisoblanmish "Bilgamish" dostonida yettilik ahamiyatli obrazlardan sanaladi. Jumladan, "Shumerlarning epik poeziyasida muhabbat ilohasi Inanna Yer osti olamiga yetti darvoza oldidan o'tadi, diniy ibodatxonadagi koinlar yetti darajaga bo'linishadi va hokazo. Bu davrda hali Bobilning kuchli madaniyati, uning mashhur yetti sayyora - yetti asosiy iloh g'oyasi shakllanmagan edi. Shumerlarning madaniyatini o'zlashtirib, rivojlantirgan Bobil tamaddunida astronomiya ham asosiy o'rin egallab, yer atrofidagi yetti sayyora (o'sha davrdagi tasavvur bo'yicha) olam va inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi yetti iloh deb qabul qilindi. Yettilikka asoslangan hafta kunlari shakllandi. Yetti iloh har birining

homiysi deb belgilandi. Adabiyotshunos Zuhra Mamadaliyevaning “Lison ut-tayr obrazlari: ramz va majoz olami” kitobida bu haqida quyidagicha ma’lumotlar bor: “Islom dinining yakkaxudochilik g‘oyasi – Tavhid ta’siri Musulmon Sharqi tasavvurlarida olam muvozanati masalasida yettilik garmoniyasi diniy-ilohiy ahamiyatini pasaytirdi. Bobil diniy qarashlari va madaniyati orqali o‘zlashgan qahramonlar endi ilohlar emas, shunchaki sayyoralar sifatida talqin qilina boshlandi. Biroq bu garmoniya Sharq xalqlari ongiga shunchalik singib ulgurgan ediki, uni xalq tafakkuri va iste’molidan butunlay chiqarib tashlashning iloji bo‘lmadi. Bundan tashqari yettilik islom dinida ham o‘z e’tiboriga ega bo‘lmoqda edi. Yagona tangri - Ollohning dunyoni yetti kunda yaratganligi, yetti do‘zax-u undan bitta ko‘p jannat, osmon va yerning yetti qavatligi tushunchasi me’rojomalar bilan bog‘liq holda tasvirlanayotgan edi. Yetti sayyora haftaning yetti kuniga, yetti iqlimga va kishilar ongiga ta’sir o‘tkazishi, homiylik qilishi, xosiyatli yoki xosiyatsiz ekanligi va hokazolar haqidagi qarashlar Musulmon sharqi astrologiyasida ham saqlanib qoldi. Garchi endi ular ma’budlar tugul, ilohiy kuchga mustaqil ega farishtalar darajasida bo‘lmalar ham, me’rojomalarda tasvirlanishicha, islom payg‘ambarining rikobini o‘pib, uning qadamining yetganidan faxrga to‘lsalar ham, har qalay, yashab qoldilar.

Aytish mumkinki, mumtoz adabiyotning ajralmas qismi bo‘lmish tasavvuf adabiyotida ham “yetti” raqami ramziy ma’noga ega deb qabul qilindi. Tasavvufda “yetti maqom”, “yetti hol” kabi atamalarga muvofiq ravishda “yetti iqlim”, “yetti sayyora”, “yetti olam” kabi ramziy timsollar paydo bo‘la boshlagan. Tasavvufning avvalgi bosqichlarida to‘rtga bo‘lib tasniflangan nafs martabalarini naqshbandiyalar yettita deb belgiladilar. Ular quyidagilardir: nafi ammora, nafi lavvoma, nafi mulhama, nafi mutmainna, nafi roziya, nafi marziya va nafi komila (sofiya).

Navoiyning yetti donishmandi quyidagicha: Aflotun (Filotun), Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfmyus va Arastu. Dostonda Iskandar yonida jami besh yuz hakim borligi aytilib, shundan o‘ntasi doimiy tarzda uning yonida ekanligi aytiladichiqqan bu mustaqil shahar-davlat keyinroq Makedoniyaning ta’siriga tushadi. Alisher Navoiy ilmni, ma’rifatni doimo ulug‘lab qadrllovchi donishmand

inson bo'lgan.

“Saddi Iskandariy” dostoni esa Navoiyning hakimlar obrazini yaqqol nomoyon etgan asari hisoblanadi. Naqumojis (Naqumohis, Nikomaxos, dostonda Aratuning otasi), Arastu (Aristotel), Filotun-Aflotun (Platon), Suqrot (Sokrat), Asqalinus (Iskilinus), Buqrot (Gippokrat), Hurmus (Germes) va Faysog'urs (Pifagor) lardir. Ma'lumki, qadim zamonlardan boshlab, antik yunon olimlari va faylasuflari, ayniqsa, Aristotel, Sokrat, Gippokrat va boshqalar Yaqin va O'rta Sharq xalqlariga ham yaxshi ma'lum edi, ularning ko'pgina asarlari arab tiliga tarjima qilingan va O'rta Osiyo hamda boshqa mamlakatlarning olimlari tomonidan sharhlangan, tahlil qilingan va ayrimlari ijodiy qayta ishlangan edi. Aristotel, Platon va boshqalar haqida afsona va rivoyatlar, badiiy asarlar paydo bo'lgan edi. Shubhalsiz, Navoiy ularning ko'pi bilan mukammal tanish edi. Biroq Navoiy “Saddi Iskandariy” da yunon olimlari va faylasuflarining tarixiy obrazlarini yaratish yoki ularning ilmiy faoliyati haqida ma'lumot berish, ijtimoiy falsafiy qarashlarini yoritish maqsadini o'z oldiga qo'ymagan. Asarning g'oyaviy-estetik maqsadi buni talab ham qilmas edi. Navoiy an'analarga amal qilib olimlarning nomlarini oladi-yu biroq ularning obrazlari orqali o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolarini, ta'lim-tarbiya masalalarini yoritmoqchi bo'ladi. U Iskandarni antik dunyodan o'z davriga to'g'rirog'i, o'z davrining progressiv xayol va orzular olamiga ko'chirgani kabi, olimlarni ham zamoni va zaminiga ko'chiradi. “Saddi Iskandariy” dagi olimlar o'z dunyoqarashi va ijtimoiy-siyosiy ideali bilan Navoiy davrining taraqqiyparvar mutafakkirlaridir. Ularning tilidan bayon etilgan fikr-mulohazalar Navoiyning o'z fikr-mulohazalaridir.

Davlat boshliqlari ilm-ma'rifat ahllarining, donishmandlarning kengashi va maslahati bilan ish olib borishi lozim degan g'oyani ilgari surgan Navoiy bir qator ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy masalalarni olimlarning tili bilan bayon etadi. Bu ko'proq Iskandarning savoli va Arastuning javobi tarzida beriladi.

Hakimlar dostonidagi voqealarda, dostonning g'oyaviy motivlari rivojida juda katta o'rin tutadilar, dostonning bosh qahramoni Iskandar obrazini to'ldiradilar, takomillashtiradilar. Iskandar har bir masalada hakimlar bilan

kengashadi, oqilona fikr-mulohazalariga amal qiladi, ularning ko'magi bilan muammolarni hal etadi, xavf-xatarlarni yengadi. Shu zaylda, "Saddi Iskandariy" dagi hakimlar o'z ilmiy faoliyatlari qobig'iga o'ralib qolmay, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol qatnashadilar, ilm-fan, tafakkurning hayotiy, amaliy natijalari uchun kurashadilar. Navoiy ilm-ma'rifat ahllarining shunday bo'lishlarini istar, orzu qilar edi.

Davlat boshliqlari ilm-ma'rifat ahllarining, donishmandlarning kengashi va maslahati bilan ish olib borishi lozim degan g'oyani ilgari surgan Navoiy bir qator ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy masalalarni olimlarning tili bilan bayon etadi. Bu ko'proq Iskandarning savoli va Arastuning javobi tarzida beriladi.

Navoiy Iskandar hamda hakimlar obrazining munosabatlarini shunday yaqinlikda ifodalaydiki, ular shoh va mulozim emas balki yaqin do'stlardek tasvirlanadi. Iskandar istedodli olim, ilm-ma'rifatning jarchisi va homiysi edi. Yoshligida Naqumojisdan ta'lim olgan Iskandar butun umr bo'yi Arastu va Aflotun kabi olimlar bilan birga bo'ladi, ularning maslahati bilan ish tutadi, ilmiy faoliyatlariga homiylik qiladi. Dostonda Iskandar yonida jami besh yuz hakim borligi aytilib, shundan o'ntasi doimiy tarzda uning yonida ekanligi aytiladi:

Bor erdi janobida besh yuz hakim,

Alardin o'ni kecha-kunduz nadim:

Filotun, Arastu, Balinos ham,

Yana Arashmidus, Shaminos ham.

Qilinmunu Volisu Farfurnus

Ki, Suqrotu Hurmus kibi xokbo's.

Garchi bu yerda o'nta deyilgan bo'lsa-da aslida asosiy yettilik vazifasi boshqalardan farqlidir. Dostonda ushbu yeti hakimlar ichida eng ko'p tilga olingan donishmandlar Arastu hamda Suqrot obrazidir.

Arastu — yunon faylasufi Platonning shogirdi bo'lgan Arestotelning Sharqona nomi. U 384-yilda Egey dengizi bo'yidagi Stagir shahrida tug'ilgan joyi tufayli ba'zan uni Arastu Straniriy deyishadi. Ellada Ittifoqidan ajralib chiqqan bu

mustaqil shahar-davlat keyinroq Makedoniyaning ta'siriga tushadi. Arastuning otasi Nikomax tabiblar naslidan bo'lib, Makedoniya shohi Ementa III saroyida xizmat qilardi. Arastu 367-yilda Afinada mashhur Aflotun akademiyasiga o'qishga kirdi va u yerda 12 yil shogirdlikni o'tadi, so'ng shu akademiyada o'qituvchilik qila boshladi. Aflotun shogirdi Arastu bilan faxrlanardi. Arastu yoshligidan Makedoniya shohining o'g'li Filip II bilan o'rtoq edi. Flipp II taxtga chiqqach, 340-yil Arastu Makedoniya poytaxti Pellaga taklif etilib, uning o'g'li 13 yoshli Aleksandrga murabbiy etib tayinlandi. Arastu shogirdini Homerning "Iliada" dostonida kuylangan qahramonliklar ruhida tarbiyalay boshladi. Keyinchalik Aleksandr "Men Arastuni otam qatori hurmatlayman, chunki otam menga hayot berdi, Arastu hayot qadriyatlarini berdi", degan ekan. 339-yil Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu ona shahri Stagirga qaytadi. Filipp II vaqtidagi urushlarda vayron etilgan bu shaharni Aleksandr ustozining hurmati uchun qayta tiklab beradi. Arastu Firdavsiyning "Shohnoma" sidayoq Iskandarning ustozlari sifatida qayd etiladi. Nizomiy Ganjaviy "Iskandarnoma" va Xusrav Dehlaviyning "Oyinai Iskandariy" dostonida Iskandarning asosiy ustozlari, nadim-u mulozimi sifatida gavdalanadi, dengiz sayyohatida ham u bilan birga bo'ladi. Jomiyning "Xiradnomai Iskandar" da ham u shu vazifani bajaradi. "Saddi Iskandariy" dagi asosiy donishmand va Iskandarning ustozlari bo'lgan bu faylasuf Iskandar taxtga chiqqanidan to umrining oxirigacha uning nasihatlariga amal qiladi. Uning nasihatlari jahongir fotihni ulug' donishmand bo'lib yetishuvida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Unga jahonni ko'rsatuvchi oyinani yasab berishda Buqrot bilan yuz nafar olimga rahbarlik qiladi. Nizomiy Ganjaviyning Iskandar Zulqarnaynga bag'ishlangan "Iskandarnoma" dostoni ikki bo'limdan: "Iqbolnoma" va "Sharafnoma" dan tashkil topgan. Dostonning ikkinchi bo'limi "Sharafnoma" jahongir-fotihning donishmandlar bilan bo'lgan suhbatlaridan tarkib topgan. Unda Arastu obrazi donishmandlikni mujassamlashtirgan asosiy timsol vazifasida talqin etilgan. Misrlik Maryam ismli malika Shom (Suriya) podshohi bo'lib turganda, qudratli Habashiston davlati qo'shinlari hujumidan og'ir ahvolda qoladi. Maryam o'z davlatini himoya qilish uchun jahongir-fotih Iskandar Zulqarnayndan yordam so'rab, murojaat etadi.

Iskandar Maryam Misriyning soʻzlarini tinglab, maslahat uchun ustoz Arastuning qoshiga yuboradi. Malikaga harbiy yordam berishdan avval, Arastu unga ilmi hikmatga oid juda koʻp bilimlarni oʻrgatadi. Nizomiy dostonida yozilishicha, Arastu hakimning Iskandar huzuridagi martabasi shu qadar yuksak ekanki, podshoh va malikalar Arastu qoʻl yuvayotganda, koʻza koʻtarib suv quyib turishni orzu qilardikanlar. Xususan, malika Maryam ham shu sharafl xizmatga muyassar boʻladi. Arastu malikaga oʻz davlatining qudratini oshirish uchun qoʻshinlariga va xalqqa gʻamxoʻrlik qilish zarurligini uqtiradi. Buning uchun Arastu boylik, siym-u zar kerakligini aytib, Maryamga misni oltin qilish haqidagi hunar - “Alkimyo” ni oʻrgatadi. Malika bu bilimlarni va adolatli davlat boshqaruvini oʻrganib, mamlakatini kuchli davlatlar qatoriga kiritishga erishadi. Jomiyning “Iskandarnoma” si haqida f.f.n. D.Yusupova “Xiradnomai Iskandariy” (“Iskandarning donishmandligi”) dostonida esa Iskandar qiyofasida tasavvufga kirgan va shu asosida hayotini qurgan solik timsoli yaratilgan”, deb fikr bildiradi. Xiradnomada ham Arastu Iskandar otasining topshirigʻi bilan unga odob-axloq va podsholik sirlaridan taʼlim bergan ustoz sifatida tasvirlanadi. Doston Faylaqusning oʻgʻli hisoblangan Iskandarning tugʻilishi, taʼlim olishi, kamolotga yetishi va otasi oʻlimidan keyin xalq talabi bilan podsho boʻlishi kabi voqealarning qisqacha bayonidan keyin faqat xiradnomalardan iborat boʻlgan asar hisoblanadi. “Saddi Iskandariy”ga qaytadigan boʻlsak, yunonlarning yetti faylasufi bilan Navoiyning yetti donishmandi orasida faqat Suqrot va Pifagor bir-biriga ioʻgʻri keladi. Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) ning zamondoshligiga qaraydigan boʻlsak, bu sanoq yana qisqaradi, yaʼni faqat Arastu va Diogengina uning zamondoshi boʻlganlar. Shundan maʼlum boʻladiki, Navoiy xronatop masalasiga eʼtibor bermagan, yaʼni oʻz Iskandari yoniga oʻz davrida maʼlum va mashhur boʻlgan yunon donishmandlarini kiritgan. Ushbu asarda barcha yunon faylasuflari islom mafkurasi asosida tasvirlanadi. Ular faqat Iskandarning onasi Bonuga taʼziya bildirib, nasihat qilayotganlarida va doston soʻnggida keltirilgan xiradnomalarda mustaqil ravishda ishtirok etadilar. Boshqa lavhalarda asosiy rolni Arastu, keyin Suqrot, qisman Aflotun bajaradi. Maʼlumki, Sharq va Gʻarbda Arastuni “sohibi mantiq”, “mantiq otasi” ieb ulugʻlashgan. Shuning uchun

ham Navoiy Arastuni Iskandarga u yer yuzidagi yetti iqlimni zabt etishida bosh murabbiy etib tayinlaydi. “Saddi Iskandariy” ga Arastu XVIII bobidan kirib keladi. Dostonning asosiy qismi o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Uni shartli erishda quyida Chin hoqoni hadya qilgan oyinayi Chindan ilhomlangan Iskandar olimlarni yangi ilmiy ixtirolarga ruhlantiradi. Aflotun va Suqrot boshchiligida olimlar yulduzlar olamini usturlobni, Arastu va Buqrot rahbarligidagi olimlar yer yuzidagi turli hodisalarni ko‘rsatib beruvchi oyinayi jahonnamoni kashf qiladilar. Iskandarning tashabbusi bilan o‘lkalarning tabiiy va geografik xususiyatlari o‘rganiladi, joylarda masofa ko‘rsatuvchi belgilar o‘rnatiladi. Bu ishlarning barchasini birma-bir sanashdan Navoiyning maqsadi har bir hukmdorga ilm-ma’rifatga, ta’lim-tarbiyaga e’tibor berish kerakligini va bu bilan har qanday davlat yuksalishini uqtirishga harakat qiladi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Saddi Iskandariy dostonlarida Suqrot obrazi alohida o‘rin tutadi. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham Navoiy Suqrotni hakimlar qatorida tilga oladi: Suqrot hakim Buqrotisning shogirdidir va Humoy binti Bahman zamonida erdi. Va anin so‘zlaridindurkim, nodong‘a tavozu’ qilmoq hanzalg‘a suv bermakdurkim, necha ko‘p ichsa, talxroq bo‘lur. Sa’y ishim, o‘z yerinda bo‘lmag‘ay, qilur ishda kohilliddin yomonroqdur va dushman bila mashvarat qilib va dushmanlig‘in bilsa bo‘lurkim, ne poyadadur.

She’r:

Cheksa dushman sening salohingga til,
Mahzi afsod bo‘lg‘usidur bil.

Ularning barchasida u donoyi daryozamir, zamiri xirad hikma tobodi, zohiru botin ilmidan voqif, asror xazinası, pokqalb, hikmat ahlining ustodi sifatida ta’riflangan. Navoiy boshqa biror bir qahramoniga bunday sifatlarni barqaror qo‘llamaydi. Suqrot “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida qahramon taqdirining hal qiluvchi pallalarida namoyon bo‘ladi, hech kim yecha olmagan mushkul masalalarni hal etadi. Muallifning bunday yondashuvlari Suqrotni komil inson qiyofasida tasavvur etishga asos bo‘ladi.

Suqrotning “Farhod va Shirin” dostonida tutgan o‘rni navoiyshunoslikda

jiddiy tadqiq etilgan. Ammo bu Navoiy asarlarida Suqrotning komil inson sifatidagi yagona talqini emas. "Xamsa" ni xotimalovchi dostonning XV bobida Suqrot komil inson timsoli sifatida gavdalanadi. Bobning tarkibiy qismlari "Mulohaza", "Hikoyat", "Hikmat" va "Voqea" lar shunday fikrga asos bo'ladi.

Voqealarda tasvirlanishicha, Iskandarning quruqlikdagi safariga Arastu boshchilik qilsa dengiz safariga Suqrot rahnamolik qiladi. Bu Suqrotning haqoyiq bilimdoni, piri komil ekanligidan dalolat. Chunki tasavvuf adabiyotida suv muayyan haqiqatlarni anglatuvchi ramz sifatida qo'llanadi.

Hakimlar obrazini keng tarzda yoritishdan ko'zlangan maqsad ham aslida shu bo'lgan. Yuqoridagi aytilgan fikrlardan kelib chiqib shunday xulosaga kelindi:

1. Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" va Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari deyarli bir davrda, ya'ni 1485-yilda yaratilgan. Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni hajman ancha yirik bolib 7215 baytdan iborat. Bu Jomiy dostoni bilan taqqoslaganda 3 baravar katta demakdir. Abdurahmon Jomiy o'z dostonida Iskandarning jahongirlikiga emas, balki uning donishmandligiga asosiy e'tiborini qaratgan bo'lsa, Alisher Navoiy esa adolatli shoh haqidagi orzularini Iskandar timsolida gavdalantiradi.

2. Iskandar Zulqarnayn ham hakim darajasidagi inson chunki bu donishmandlarni bir joyga to'plab, ularga turli xil narsalarni kashf qilishni topshirganining o'zi ham uning hakimligidan darak beradi.

3. Hakimlar hayotda turli davrlarda yashagan bo'lsalarda asarda aynan bir davrning olimlari tarzida ifodalangan. Bu esa Navoiyning turli hakimlarning yashagan davri emas, ularning yaratgan ilmlari har doim kerakli ekanligini uqtirgandek go'yo.

4. Navoiy har qanday shoh atrofida hakimlar bo'lishi va ularning maslahati bilan ish qilishi lozim ekanligini ushbu dostonida aytib o'tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 19 oktabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4865-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/5054929>

2. “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at” / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. 2 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 480 b.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Mas’ul muharrir: B.Valixo‘jayev. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. – 264 b.
4. Jomiy Navoiy haqida // Navoiy zamondoshlari xotirasida: [To‘plam] / [Tuzuvchi: B.Ahmedov]. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. – 224 b.
5. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. I–X jildlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.
6. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik.- fan, 1993. 11-jild.
7. Erkinov A.S. Navoiy – peyzaj ustasi, - T.: Fan, 1988.
8. Navoiy Alisher. Sab’ai sayyor.:T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami: Xamsa: Hayratul-abror. T.:Fan , 1991.
10. 10. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to‘plami.-fan, 1977
11. Alisher Navoiy. Layli va Majnun; Sab’ai Sayyor. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa birlashmasi, 2012.